

RUBOIY TARJIMASIDA FALSAFIY MAZMUNNI QAYTA YARATISH (UMAR XAYYOM RUBOIYLARI TARJIMALARI IMISOLIDA)

Ismoilova Madinaxon Maxamadjon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 2-kurs magistranti

Ruboiy yozish yaralibdiki, uning mazmunida falsafiy fikrlarni aks etishi, unda tasavvuf timsollarini qo‘llash an’anaga aylandi.

So‘fiyona istilohlar, ramz-u tashbeh, kinoya-timsollar vositasida so‘zlash-tasavvuf adabiyotining tili hisoblanadi. Oллоhga bo‘lgan muhabbatni dunyo go‘zalliklari orqali kuylash, asl maqsadni obrazlar ortiga yashirib, timsollar qatiga o‘rash-bu she’riyatning asosiy sharti. So‘fiyona asar tarjimasining murakkabligi ham shundan kelib chiqadi¹⁰.

Tasaffuvdagi istilohlar insonni fikrlashga, tafakkur qilishga, timsollar ortida aslida qanday ma’no yashiringanini anglashga chorlaydi. Ruboiy yoki har qanday janrda bu timsollar qo‘llanilgan bo‘lsa, uni to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilish xatolikka yo‘l qo‘yish hisoblanadi.

Umar Xayyom ruboiylarining aksariyatida tasavvufiy ma’no bor. Ularni tarjima qilishda birinchi o‘rinda shu tarafini e’tibordan chiqarmalik maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ammo uning to‘g‘ridan to‘g‘ri yozilgan ruboiylari ham borki, ularni bir-biridan farqlash qiyinchilik tug’dirmaydi, chunki buni tasavvufiy istilohlardan ajratib olishimiz mumkin. Ruboiy tarjimasida tasavvufni unutmagan holda falsafiy mamunni qayta yaratish tarjimondan mahorat talab etadi.

Quyida Ergash Ochilovga tegishli tarjimada ushbu falafiy mazmun qanday ochib berilganini ko‘rishimiz mumkin:

Čun abr benawrôz rox-e lâle bešost,
Barxêz-o bejâm bâde kon ‘azm-e dorost,
Ke-in sabza ke emrôz tamâšâka-e tost,
Fardâ hama az xâk-e tu barxâhad rost.

Navro‘z kuni lola yuzini yuvdi bulut,
Shahd ayla-yu tur – Qo‘lingga may jomini tut.
Qabringdan unar ertaga – hech qilma unut,
Sayr etganing ushbu kun hamma sabza-yu o‘t...

Ruboiyda bir kun umr tugashi, vaqt borida umr qadahini mayga to‘ldirib qolish kerakligi haqida so‘z boradi. Ruboiy tarjimasini har bir misrasini o‘qir ekanmiz, tarjimon asliyatdagi falsafiy mamunni tarjimada qayta yaratganiga guvohi bo‘lamiz. May bu yerda tasavvufiy istiloh sifatida keltirilgan bo‘lib, vaqt borida iymonga to‘lish kerakligi haqida ishora beradi. Asliyatda ham bu boda orqali ifodalangan.

¹⁰Ochilov E. Xayyom ruboiylarining o‘zbekcha talqinlari \ Umar Xayyom. Tiriklik tilsimi. – T: O‘zbekiston, 2012. B. 18.

Shosilom Shomuhamedovda ham ruboiy quyidagicha tarjima qilingan:

Lola yuzini yuvdi yog‘ingar ko‘klam,
Limmo lim qadahga qo‘l uzat bardam.
Bu kun sen sayr etgan ushbu ko‘katlar,
Erta tuprog‘ingdan unar jamul-jam.

Tarjimada ruboiy mazmuni asliyatdagi ma‘noni ochib bergan. Umumiy qaraydigan bo‘lsak, ikkala tarjimada ma‘no bir biriga yaqin. Tarjimani asliyatdagidek ma‘nodan farq qilmayotganini ko‘ramiz. Tarjimon umrning o‘tishi va iymonga shoshilish kerakligini, bir zum o‘tmay, hozir ko‘rib turgan manzaramiz, ertaga o‘z qabrimiz ustida bo‘lishi mumkinligini to‘liq ifodalab bera olgan. Mujmallik yo‘q.

Ruboiy qisqa va lo‘nda yozilgani uchun uning tarjimasini ham berishda qisqa ma‘nolik, ammo chuqur mazmunga ega so‘zlardan foydalaniladi. Falsafiy mazmun yaratishda tarjimon shoirning yashagan davri, uning ilmiy salohiyati, yashash tarzini ham chuqur bilishi kerak. Chunki uning aynan asari orqali nima demoqchi ekanligini ba‘zan islilohlar ortiga berkitganda, tarjimon ona tilisida ana o‘sha mazmunni yoki qo‘llanilgan istilohni tarjimasini bilan, yoki uni to‘g‘ri ma‘noini beradigan bilan ochib berishi kerak. Bo‘lmasa asar ma‘nosi tubdan o‘zgarib ketishi mumkin. Quyidagi ruboiyda ham Umar Xayyom falsafaga murojaat qilgan. May ya‘ni iymon jonning quvvati, shikasta dil qutqaruvchisi, vafot etgandan so‘ng go‘yoki uni Nuh kemasiga qiyoslagan.

Sâqi ke labaš mofareh yâqôt ast,
Del râ ğam-e ô fawt-e ô jân-ra qawt ast,
Har kas ke našod košta ba tōfân-e ğamaš,
Dar kešti-e Nuh zenda dar tâbut ast.

Endi birinchi tarjimani ko‘rsak:

May ichki, hamisha quvvati ruhdir u,
Osoyishi jon-u dili majruhdir u.
Har yondan bosib kelsa g‘am to‘foni,
Maydan panoh izla – kemayi Nuhrdir u.

Tarjima Ergash Ochilovga tegishli bo‘lib, unda falsafiy mazmun ochib berilgan. Birinchi misrada tarjimon asliyatdagi soqiy obraziga murojaat qilmasdan mazmunni yarata olgan.

Soqiy falafiy istiloh hisoblanib, bunda so‘fiylar Ollohni, Muhammad alayhissalomni, ma‘shuqani, pir yoki komil insonni nazarda tutadilar. Soqiy davraga may ulashgani kabi

ular ham odamlar qalbiga ilohiy fayz bag‘ishlaydilar, haqiqiy ishq o‘tini soladilar, g‘ayb ma‘rifatidan bahramand etadilar.¹¹

Asliyatda mayga murojaat ochiqchasiga aytilmagan, tarjimada esa may obraziga murojaat bilan boshlangani uchun, mazmun oson anglshilgan May majruh dilning osoyishi ekanligi va xuddi so‘nggi manzilga ketayotganda mayning Nuh kemasidek panoh bo‘lishi tarjimada bir o‘qishdayoq anglashiladi.

Soqiy lablaringdan rang olmish yoqut,
G‘ami dilga quvvat, jonga berar qut.
Ishqi to‘fonida kim g‘arq bo‘lmadi,
Go‘yo Nuh kemasi unga bir tobut

Shosilom Shomuhamedovning tarjimasida so‘zma so‘z tarjima qilingani uchun bir o‘qishda gap nima haqida ketayotganini anglash mushkil. Birinchi tarjimada Umar Xayyomning falsafiy ma‘nosi boshqa so‘zlar bilan ochib berilgan bo‘lsa, ikkinchisida so‘zlar o‘z aslicha tarjimada yaralgan. Ikkinchi misradagi “quvvat” so‘zi “qut” so‘ziga almashtirilgani uchun, qofiyasi to‘g‘ri kelgan, ammo mazmunan mujmallik yaratgan. Oxirgi misradagi *Nuh kemasi unga bir tobut*, jumlasini inson vafotidan keyingi qutqaruvchi ma‘nosida tushunish kerak. Bu yerda esa *kema* falsafiyiligini yo‘qotib, oddiy tobut ma‘nosiga ko‘chib qolgan.

Men o‘lsam, may birla yuvishni ko‘zlang,
Yo‘qlovda jom birla sharobdan so‘zlang.
Qiyomat kunida topmoq bo‘lsangiz,
Mayxona tuprog‘in tubidan izlang.

Ushbu ruboiyda bir qancha falsafiy istilohlar ishtirok etgan. *May, jom, mayxona*.

Bu yerda Xayyom yana falsafiy mazmunga murojaat ila yozadi. Vafotimdan so‘ng iymon bilan, ollohning ishqiga to‘la qalb bilan (may) yuving, meni eslaganingizda ilm-u ma‘rifat iymon va ishq (jom va sharob) ila eslang deydi. Agar mahsharda meni ko‘rmishni istasangiz, mayxonadan ya‘ni oriflar, ollohning ishqidan sarmast bo‘lgan insonlar to‘planadigan yer (mayxona)dan izlang, deydi. Shoislom Shomuhamedovning tarjimasiga nazar solar ekanmiz, tarjima va asliyatga murojaat qilsak, va istilohlarni ma‘nosini bilsak, ruboiyni bir o‘qishdayoq anglash mumkin. Birinchi tarjimada ham ushbu istilohlar aslidagidek tarjimaga ko‘chib, to‘la ma‘no ochiqqlangan. To‘g‘ri, ba‘zi so‘zlar tarjimasda mujmallik mavjud bo‘lsa-da bu falsafiy mamunga katta ta‘sir ko‘rsatmagan.

Jismimni yuving boda bilan o‘lsam agar,
Yod aylasangiz soz yana may birla sahar.
Mayxonani(ng) tuprog‘iga tashlaydi nazar,

¹¹Ochilov E. Xayyom ruboiylarining o‘zbekcha talqinlari \\\ Umar Xayyom. Tiriklik tilsimi. – T: O‘zbekiston, 2012. B. 78.

Mendanki, qiyomatda tilar kimsa xabar...

Bu tarjimada Ergash Ochilov ruboiy tarjimasidagi ma'noni ochishga katta e'tibor qaratgan. Yuqoridagi tarjima bilan deyarli ma'nosida farq qilmaydi. Tasavvufiy istilohlar aslidagidek tarjima qilingan. Umar Xayyomning falsafasi ochib berilgan. Tarjimada eng katta ish bu mazmunni buzmaslik va uning falsafasini kitobxonga yetkazib berish bo'lsa, ushbu maqsad har ikki tarjimada amalga oshirilgan.

Xulosa qilib aytganda, har qanday mavzu va fikr falsafiy talqin qilinishi jihatidan ruboiy she'riyatning falsafiy janri hisoblanadi. Binobarin, ruboiy tarjimasida ham falsafiy ma'noni aks ettirish asosiy talab sanaladi. Tarjimalar tahlili tarjimonlar goh ruboiyda ifodalangan mazmunni to'g'ri yetkazsalar, goh noto'g'ri talqin etganlari, goh esa ifoda g'alizligi ma'noni tushunishga xalaqit berganligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ochilov E. Forsiydan O'zbekchaga she'riy tarjima muammolari (monografiya). – T: 2013. – 200 b.
2. Ochilov E. Umar Xayyom // Qadahdagi Sir (Ruboiylar) – T: 2018. – 102 b.
3. Ochilov E. Xayyom ruboiylarining o'zbekcha talqinlari \\\ Umar Xayyom. Tiriklik tilsimi. – T: O'zbekiston, 2012. – 102 b.
4. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o'quv qo'llanma). – T: Sharqshunoslik instituti, 2012. – 300 b.
5. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – 229 b.
6. Salomov G'. Tarjimon mahorati. T: Fan, 1979. – 407 b.
7. Salomov G'. Til va tarjima. T: Fan, 1966. – 290 b.
8. Umar Xayyom, Navro'znoma. T: Yangi asr avlodi, 2019. – 173 b.
9. Jamol Kamol .333 ruboiy. – T: O'zbekiston, 1991. – 75 b.
10. O'zbek klassik she'riyati janrlari. – T: O'qituvchi, 1979. – 182 b.
11. Shomuhamedov Shoislom- Umar Xayyom //Ruboiylar//. - T: Sharq, 1985. – 455 b.